SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-oktabr 570-7-96-Q/24 Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

2025-yil uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

Tuman adliya bo‘limining xulosasiga, O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son Qarori, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining xati va unga ilova etilgan hujjatlar o‘rganib chiqilgan deb hisbolansin hamda undagi talablar qanoatlantirilsin hamda tuman adliya bo‘limining 2024-yil 28-oktabrdagi 9-son xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

- tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga;

- “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxona, tashkilot va muassasalarda 2025-yilga belgilangan kvota ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga;

- 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxonalar ro‘yxati 3-ilovalarga asosan tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 230 kishini tashkil etadigan 3,5 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorida, shu jumladan:

- Nogironlar uchun 23,0 foiz -53 kishi;

- Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 30,0 foiz – 68 kishi;

- O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasasini tugatgan yoshlarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilar uchun 34,0 foiz – 79 kishi;

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun 3,0 foiz –7 kishi;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 5,0 foiz -12 kishi;

- jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburiy choralariga tortilgan shaxslar uchun 2,5 foiz - 6 kishi;

- Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar shaxslar uchun 2,5 foiz – 5 kishi deb belgilansin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) ga ko‘maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari zimmasiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – “**VM-965-son qarori**”)ga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) zimmasiga mazkur qaror ijrosini bajarishdan bosh tortgan yoki qisman bajargan tashkilot, korxona yoki muassasa rahbariga nisbatan O‘zbekiston

Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi talablaridan kelib chiqib, jarima qo‘llash masalasini hal qilish vazifasi yuklatilsin.

7. VM-965-son qaroriga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishga qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdorda ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganini hisobga olib, “ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga-har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida subsidiyalar ajratilishi” inobatga olinsin.

9. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

10. Mazkur qaror qonuniy kuchga kirishi bilan tuman hokimining 2023-yil 30-oktabrdagi 481-7-96-Q/23-son va 2024-yil 30-apreldagi 189-7-96-Q/24-son qarorlari bekor qilinsin va o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov) hamda “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi (O‘.Usmonov) lar zimmasiga tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov) bilan birgalikda ommaviy axborot vositasilari hamda ijtimoiy tarmoqlari mazkur qarorning aholining ish topishga ehtiyojmand va qiynalgan shaxslar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish vazifasi yuklatilsin.

12. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklansin.

13. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **J.Nasriddinov**

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
570-7-96-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Aholi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish bo’yicha ishchi guruh

T A R K I B I

1	Jo‘lmatov Norboy Aliboyevich	Tuman hokimining birinchi o’rinbosari ***ishchi guruh rahbari***
2	Raximov Elbek Erkinovich	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i ***ishchi guruh rahbar o‘rinbosari***
3	Mardonov Sardor Ibodullayevich	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari ***ishchi guruh kotibi***
4	Ochilov Aslam Nurullayevich	Tuman IIB boshlig‘i
5	Xolmirzayev Shuxrat Safarovich	Tuman prokurori
6	Abduqaxxorov Laziz Ubaydullo o‘g‘li	Tuman Yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i
7	Qo‘ldoshov Oybek Tolliboyevich	"Kattaqo‘rg‘on tumangaz" gaz ta’minoti bo‘yicha filial rahbari
8	Xudayqulov Voxid Yorqulovich	Tuman tibbiyot birlashmasi rahbari
9	Jo‘rayev Nabi Qaxramonovich	tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori

Izoh: *Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tganda yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda uning o‘rniga tayinlangan shaxslar ishchi guruh a’zosi hisoblanadi.*

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
570-7-96-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumot

T/r	Topshiriq belgilangan korxonalar soni	Ularda ishlovchilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:								
				Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalar	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar

					ining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari							
				reja	**reja**	**reja**	**reja**	**reja**	**reja**	**reja**	**reja**	**reja**
1	116	7479	230	68	79	7	53	12	6	0	5	0

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
570-7-96-Q/24-son qaroriga
3-ilova

2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha manzilli jadvali